

BAYONCHI-MEN, MUALLIF OBRAZINING GENEZISI VA TARAQQIYOTI**G'ofurova Shahnoza Alimovna****O'z R F A O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti****3-bosqich tayanch doktoranti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15878026>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Adabiyot tarixi jarayonida muallif obrazi turlicha talqin qilingan bo'lib, muallifning matn ustidan nazorati, uning niyati va shaxsiyati asarning mazmuniga qanday ta'sir qilishi masalasi adabiyotshunoslar va faylasuflar tomonidan keng muhokama qilingani haqidagi fikrlarga qiyosiy-solishtirma metodi asosida yangicha nazar tashlanadi. Va bu tadqiqotda o'zining shablon va qamrovi jihatdan keng tushunchani ifodalaydigan muallif konsepsiyasi asosi bo'lgan muallif obrazining tarixiy-tadrijiy taraqqiyotini qay shaklda bosib o'tganini tasniflashga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Antik davr, yunon va rim adabiyoti, Uyg'onish davri, g'arb klassik adabiyoti, zamonaviy adabiyot, muallif konsepsiyasi, muallif obrazi, fenomen.

Muallif tushunchasining tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti, genezisi qadim davrlarga borib taqaladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Antik davrda muallif tushunchasi unchalik muhim sanalmasdi. Masalan, qadimgi yunon va rim adabiyotida ko'plab asarlar og'zaki rivoyatlar asosida shakllangan va muallif nomi har doim ham aniq bo'lmagan. Homerga nisbat berilgan "Iliada" va "Odissey" dostonlari aslida turli avlodlarning og'zaki ijodidan shakllangan. Ilk va o'rta asrlarda esa muallif tushunchasi ko'proq diniy an'analar bilan bog'liq edi. Asarlar individual ijod mahsuli emas, balki ilohiy ilhom natijasi sifatida ko'rigan. Xususan, Injil yoki Qur'on matnlarining muallifi inson emas, balki Xudo deb qaralgan. Shu sababli o'sha davr adabiyotida muallif shaxsiyati va individualligi kam ahamiyat kasb etgan. Uyg'onish davrida (XIV–XVI asrlar) esa bu davr bilan birga muallif tushunchasi ham o'zgarishga yuz tutdi. Bu davrda ijod erkinligi va individuallikka katta e'tibor berila boshlandi. G'arbda Dante, Shekspir, Servantes kabi ijodkorlar o'z asarlarida muallif shaxsiyatini aks ettira boshladilar. Ulardan oldin esa mualliflik shaxsiyati allaqachon sharqda shakllanib bo'lgan edi. Bunga sharq mumtoz ijodkorlarining asarlari namunasi yaqqol misol bo'lib xizmat qiladi. Yevropada sharqqa nisbatan kechroq shakllangan muallif tushunchasi endi shunchaki bir hikoyachi emas, balki asarga o'z falsafasi, qarashlari va shaxsiy tajribasini singdiruvchi ijodkor sifatida ko'rildi. G'arb klassik adabiyotida XVII–XIX asrlarda muallif tushunchasi yanada mustahkamlanib, u ijodiy shaxs sifatida markaziy o'ringa chiqdi. Romantizm va realizm adabiy yo'nalishlari muallifning individualligini yanada oshirdi. Masalan, Jorj Bayron o'z asarlarida muallif shaxsiyatini aks ettirgan, uning dunyoqarashi matnning markaziy qismiga aylangan. Fyodor Dostoyevskiy romanlarida muallif ijtimoiy muammolar orqali falsafiy g'oyalarni ilgari surgan va o'zining axloqiy savollarini asarlariga joylashtirgan. Klassik adabiyotshunoslik muallifni asarning asosiy markazi sifatida ko'rgan. A.N. Veselovskiy, M.M. Baxtin kabi olimlar muallif obrazini matnning tuzilishi bilan bog'liq tushuncha sifatida tahlil qilgan. Baxtin o'z tadqiqotlarida muallif obrazini "polifonik roman" tushunchasi bilan izohlagan, ya'ni muallif bir vaqtning o'zida bir nechta obrazlarda ishtirok etishi mumkin.

Zamonaviy adabiyot XX asrni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib ayrim nazariyachi va tanqidchilar XX asrda muallifning markaziy o'rnini shubha ostiga olishadi. Strukturalizm va poststrukturalizm muallifning o'rnini kamaytirib, matnni mustaqil tizim sifatida o'rganishga e'tibor qaratdi. Bu adabiyotshunoslar kimlar edi va ular qanday fikrlarni ilgari surishdi.

Fransuz adabiyotshunosi Roland Bart o'zining "Muallifning o'limi" ("La Mort de l'Auteur") maqolasida muallif tushunchasini tanqid qildi. Unga ko'ra: "Matn yaratilib bo'lgach, muallifning niyatlari va shaxsiyati ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Asarning haqiqiy ma'nosi o'quvchi tomonidan shakllantiriladi. Har bir o'quvchi matnga o'z dunyoqarashidan kelib chiqib ma'no yuklaydi. Muallif o'z g'oyasini, fikrini ilgari surmasdan kitobxonga qoldirish kerak" [1.17], dedi. Bartning bu g'oyasi muallif konsepsiyasini tubdan o'zgartirdi va matn tahlilida muallifning ahamiyatini kamaytirishga olib keldi. Mishel Fuko esa "Muallif nima?" ("Qu'est-ce qu'un auteur?") maqolasida muallifni ijtimoiy qurilma sifatida tushuntirdi. Unga ko'ra: "Muallif tushunchasi tarixiy va madaniy kontekstda shakllangan. Muallif nomi – bu huquqiy va ijtimoiy ramz bo'lib, ijodiy shaxsning o'zidan ko'ra ko'proq jamiyat tomonidan belgilanishidir. Matnni tahlil qilishda muallif shaxsiyatiga tayanish shart emas, chunki matn o'z kontekstida mustaqil tahlil qilinishi kerak" [2.128]. Muallif obraziga, konsepsiyasiga nisbatan bunday zamonaviy yondashuvlar natijasi o'laroq g'arbda o'ziga xos ko'rinish olayotgan XXI asr adabiyotshunosligi muallif konsepsiyasini yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqmoqda. Muallif butunlay inkor qilinmagan, balki u matnlar o'rtasidagi bog'liqlik kontekstida tahlil qilinmoqda. Shu sababli "muallif yangi narsani yaratmaydi, balki mavjud diskurslardan foydalanib, ularni qayta shakllantiradi" [3.133]. "Muallifning o'limi" maqolasida asar yaratilib bo'lgach, muallifning maqsadi va shaxsiyati ahamiyatini yo'qotishini ta'kidlaydi. Muallif obrazining asardagi vazifasi asarning semantik va ideologik asoslarini belgilab bergani uchun muallif obrazi orqali asarning asosiy g'oyalari shakllanadi. Umberto Eko o'zining "Ochiq asar" (Opera Aperta) nazariyasida matnni ko'p ma'noli tizim sifatida ko'rib, muallifdan ko'ra o'quvchining talqiniga ko'proq ahamiyat beradi. Uyg'onish davridan boshlab muallif shaxsiyati markaziy o'ringa chiqsa-da, XX asrda bu tushuncha g'arbda tanqid qilindi va muallif roli nisbatan kamaytirildi. Zamonaviy adabiyotshunoslik muallifni inkor etmaydi, balki uni matnning boshqa elementlari bilan bir qatorda tahlil qiladi. XX asr strukturalistlari muallif obrazini matnning ichki strukturasiga bog'liq fenomen sifatida talqin qilgan bo'lsa, poststrukturalizm vakillari muallif obrazining mavhumligi, ya'ni o'quvchining individual talqini asosida shakllanishini ilgari surganlar. XX asrda strukturalizm nazariyasiga ko'ra muallifning rolini kamaytirgan holda, matnning o'zidan kelib chiqib tahlil qilish kerakligi ilgari suriladi. Keyinchalik g'arb zamonaviy adabiyotshunosligida muallif obrazi intertekstualizm va o'quvchi nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. O'quvchi nazariyasi (Umberto Eko) bo'yicha muallif obrazi faqat matndagi belgilar orqali emas, balki o'quvchining matnni talqin qilishiga qarab shakllanadi. Postmodern adabiyotda muallif obrazi ko'pincha parodiya yoki ironik shaklda namoyon bo'ladi. Masalan, Xorxe Luis Borxes va Umberto Eko tadqiqotlarida muallif obrazi o'ziga xos qiyofaga aylanadi.

Muallif konsepsiyasi va muallif obrazi o'rtasida farq bormi yoki ular bir-birini taqozo qiladigan tushunchalarmi degan savol paydo bo'lganda esa, shunday javob bilan izohlashni ma'qul ko'ramiz. Ular aynan bir tushunchani ifodalaydi, lekin bir-birisiz tajalli topmaydi. Biri mazmun bo'lsa, biri shakldir. Ya'ni, inson jismi ruhsiz tirik bo'lmaganidek, muallif konsepsiyasi ham muallif obrazisiz o'zining asl maqsadini amalga oshirolmasdi. Ularni yana ham ochiq lekin nazariy izohlash maqsadida shu ta'rifni beramiz. Muallif konsepsiyasi asarni yozgan shaxs va uning ijodiy niyatlariga oid tushuncha bo'lsa, muallif obrazi esa asarda bevosita yoki bilvosita ifodalangan muallifning badiiy qiyofasidir. Adabiy asarda muallif obrazi tushunchasi muhim nazariy masalalardan biri bo'lib, u muallifning shaxsiyati, dunyoqarashi, hissiyotlari va fikrlari asarga qanday ta'sir qilishidan ham bilamiz. Muallif obrazi har doim ham bevosita namoyon

bo'lmaydi – u ba'zan ochiq ifodalanadi, ba'zan esa matn strukturasi yashirin holda bo'ladi. Adabiy jarayonda muallifning roli bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lib, klassik adabiyotshunoslik muallifni markaziy figura deb bilgan bo'lsa, zamonaviy nazariyalar matnni mustaqil hodisa sifatida talqin qiladi. Lekin bitta e'tibor qaratadigan jihat bor. Axir asar syujeti muallifning tafakkurida va hayotida zuhur topgani uchun qog'ozga tushadi. Peysaj, makon va zamon, personajlar adibning ong mahsuliku. Demak, biz kitobxonlar baribir muallifning mahsulotini iste'molchisiga aylanamiz. Albatta, kitobxon o'zining pozitsiyasidan kelib chiqib syujetni yoritadi, tahlil qiladi. Ammo muallif tasvirlagan tasvirlar, poetik til, poetik tafakkur natijasida bunyod bo'lgan shakl va mazmundan batamom og'ishib ketolmaydi. Muallif obrazi adabiy asarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi, lekin uning talqini turli nazariy maktablarga ko'ra farqlandi. Klassik adabiyotshunoslikda muallif markaziy figura sifatida ko'rilgan bo'lsa, lekin g'arb adabiy jarayonida bo'y ko'rsatagan zamonaviy qarashlar matnni mustaqil ob'ekt sifatida tahlil qilishni afzal biladi. Shu bilan birga, intertekstualizm va postmodernistik nazariyalar muallif obrazining turli kontekstlarda qanday o'zgarishi mumkinligini namoyon qiladi. Hozirgi globallashuv yana ham aniqrog'i texnika taraqqiyotining "pik nuqtasi" davrida yashar ekanmiz ayrim mulohazalar ham bizni chetlab o'tmadi. Bunday globallashuv adabiyot olamida ham qo'llaniladigan bo'lsa, kelajakdagi tadqiqot mavzulari muallif obrazining raqamli adabiyot va sun'iy intellekt, yangi media muhitidagi o'rnini o'rganishga qaratilishi ham mumkin. Chunki ijtimoiy tarmoqlardagi bloglar soni kundan-kun ortib bormoqda. Nuqtai nazarimizda bunday media muhitiga yoki sun'iy intellekt chiqargan mahsulotga badiiylilik jihatidan yondashish, o'rganish yoki tadbiq qilish adabiyot, san'at olamining etik-estetik ideal tushunchalariga zid kelib qoladi deb tushunamiz.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barthes R. "Death of the Author". Aspen Magazine, №5.17p.1967.
2. Foucault M. "What is an Author?" (Qu'est ce qu'un auteur)– "Language, Counter-Memory, Practice: Selected Essays and Interviews" (1977) Cornell University Press.128 p. Donald F. Bouchard va Sherry Simon
3. Foucault M. "What is an Author?" (Qu'est ce qu'un auteur)– "Language, Counter-Memory, Practice: Selected Essays and Interviews" (1977) Cornell University Press.133 p. Donald F. Bouchard va Sherry Simon